

Изох:

1. 1 kredit 30 soatni tashkil qiladi. Ta'limning 4 yillik bakalvriat bosqichida jami 240 kredit rejani inobatga olib, bitiruv malakaviy ishi uchun 1 kredit shartli 54 akademik soat va umumiy 6 kredit, malakaviy amaliyotlar uchun haftalar soni yoki umumiy yuklama soatidan qat'iy nazar shartli umumiy 18 kredit qabul qilinadi. Bu kredit-modul va reyting tizimida o'quv jarayonini tashkil qiladigan oliy ta'lim muassasalar uchun har qaysi ta'lim yo'nalishiga yagona o'quv rejasini tuzilishidan kelib chiqib, undagi mutanosiblikni ta'minlash maqsadida qabul qilingan. Reyting tizimi bo'yicha jami o'quv soati 6480 soat, kredit-modul tizimi bo'yicha esa 7200 soatni tashkil etadi.
2. K (kredit ta'lim tizimiga kirish) - kredit-modul tizimida o'qish jarayonini tashkil qiladigan oliy ta'lim muassasalari uchun tegishlidir. Reyting tizimida ta'lim jarayonini davom ettiradigan oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv jarayoni ilk haftasidan boshlanadi hamda o'quv jarayoni jadvalida ta'tillar haftasi 1 hafta ko'proqni tashkil etadi.
3. Oliy ta'lim muassasasi ixtisoslik fanlarining dasturlarini ishlab chiqishda kadrlar buyurtmachilarining talablarini e'tiborga oladi.
4. O'quv reja asosida ishchi o'quv rejasini tuzishda talabalar yuklamasining haftalik hajmini saqlagan holda o'quv fanlari bloki hajmini 5 foizgacha, bloklar tarkibidagi fanlar hajmini 10 foizgacha o'zgartirish hamda auditoriya yuklamasining umumiy hajmini saqlagan holda ayrim semestrlarda haftalik yuklamalar hajmini erkin belgilash mumkin.
5. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari qo'shimcha fanlar blokining soatlar hisobiga, harbiy yig'in esa ta'til vaqti hisobiga o'tkaziladi. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazilmaydigan hollarda ushbu blokdan mehnat bozori va kadrlar buyurtmachilarining talablariga moslanuvchanligi va harakatchanligini ta'minlovchi fanlar OTM Kengashi qarori bilan belgilanadi.
6. Bitiruv malakaviy ishini bajarish muddatlari tarkibiga uni himoya qilish ham kiritiladi.
7. O'quv reja kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari va laboratoriya ishlari oliy ta'lim muassasasi hamda bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.
8. Ushbu ishchi o'quv reja Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 2023 yil _____dagi _____sonli qarori bilan tasdiqlangan o'quv rajaga asosan tuzildi.
9. Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarining malakaviy amaliyotlari bazaviy tashkilot va korxonalarda (Malakaviy amaliyot 1-kursda 2 hafta, 2-kursda 4 hafta, 3-kursda 4 hafta, 4-kursda 6 hafta, 5-kursda 2 hafta) o'tkaziladi.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari	Haftalar soni	Semestr	Davlat attestatsiyasi
Nazariy va amaliy ta'lim	40	1-10	Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish yoki ixtisoslik fanlaridan Davlat attestatsiyasi
Kredit to'plash	18	1-8	
Malakaviy amaliyot	18	2,4,6,8,10	
Attestatsiyalar	10	1-10	
Bitiruv malakaviy ish yoki yakuniy davlat attestatsiyasi	5	10	
Jami	91	1-10	

QarMII Kengashining 2024 yil 06.27 dagi 12- sonli qarori bilan tasdiqlangan

O'quv ishlari bo'yicha prorektor:

I.I. Ismailov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:

Z.E. Chorshanbiyev

Sirtqi bo'lim boshlig'i:

Q.H. Berdiyev

"TVM" kafedrasini mudiri:

D.Sh. Chuyanov